

PANDIMIYA SHAROITIDA HAJ AMALLARINI BAJARILISHI

Urakova Feruza

Nizomiy nomidagi TDPU

Tarix fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya:

Haj islom dinining besh ustunidan biri hisoblanadi. Imkoniyati mavjud boʻlgan har bir musulmon uchun haj ziyorati farz boʻladi. Ushbu tezisda mustaqillik yillarida yurtimizda haj ziyoratining yoʻlga qoʻyilishi, jarayonning oʻziga xosligi muhokama etiladi,

Kalit soʻzlar: Islom dini, haj ziyorati, tarix, farz, yoʻnalish, pandimiya.

KIRISH

Kaʼbatulloh ziyorati – har bir musulmonning orzusi. Taassuflar boʻlsinki, millatimizning ne-ne fozil farzandlari uchun bu orzu armonga aylangan zamonlar ham boʻlgan edi. Yaʼni Sobiq Ittifoq davrida butun Ittifoq mamlakatlari boʻyicha sanoqli kishilargina bu muborak ziyoratni amalga oshira olgan xolos. Agar raqamlarga nazar solsak, 1945 yildan to 1989 yilgacha boʻlgan davrda Ittifoqdan taxminan 1500 nafar ziyoratchi, hajga borgan.

Yaratganning buyuk inʼomi – mustaqillik yillarida ushbu ibodat uchun ham muayyan sharoitlar yaratila boshlandi. Yildan yilga hojilarimiz uchun kvotalar oshirilib, ibodatlarni mukammal ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratib kelinmoqda.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev fuqarolarning vijdon erkinligini taʼminlash, jumladan, ularning muborak haj amallarini ado etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida muntazam gʻamxoʻrlik qilib kelmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Muborak haj ziyoratiga boruvchilarga yordam koʻrsatish toʻgʻrisida»gi Qarori ana shu ezgu maqsadlarga qaratilgan. Bunda Din ishlari boʻyicha qoʻmita, Tashqi ishlar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Sogʻliqni saqlash vazirligi, Davlat bojxona qoʻmitasi, Oʻzbekiston havo yoʻllari va boshqa koʻpgina mutasaddi tashkilotlar begʻaraz yordamlari bilan yaqindan koʻmak bermoqdalar.

Barchamizga maʼlumki oʻtgan oxirgi ikki yil dunyoda keng tarqalgan virus sabab haj va umra ibodatini ado etish hech bir musulmonga nasib qilmadi. Alhamdulillah,



bu yil yana Ka'bai muazzamani ziyorat qilib, islomning beshinchi arkoni bo'lmish haj ibodatini bajarish uchun ziyoratga yo'l ochildi. Shu maqsadda joriy yilda haj va umra tadbirlarini tashkil etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib, fuqarolarimizning muqaddas ziyoratga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirish maqsadida Rahbariyat ko'rsatmasi va jamoatchilik kengashi qarori asosida haj va umra safarlarini tashkil etish yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, umra safariga boruvchi ziyoratchilarning sonini belgilash bo'yicha kvota olib tashlandi, natijada respublikamizning ayrim hududlarida navbatlar tugatildi, ba'zilarida esa navbatlarining sezilarli darajada kamayishiga erishildi. "COVID-19" pandemiyasi sababli to'xtatilgan uzoq muddatli tanaffusdan keyin, shu yilning 22 yanvar kuni ziyoratchilarimizning dastlabki guruhlari Saudiya Arabistoniga umra safariga yo'l oldi.

Muborak haj va umra ziyoratiga borayotgan yurtdoshlarimiz uchun Makka va Madina shaharlarida barcha sharoitlar muhayyo qilindi. Ularni kutib olish, mehmonxonalarga joylashtirish, tibbiy xizmat, uch mahal issiq taomlar bilan ta'minlash, qaytish ishlari yuqori saviyada tashkil etildi. Bunda diniy idora tomonidan tashkil etilgan haj va umra ishchi guruhlarning salmoqli mehnatlari borligini qayd etish darkor. Xususan, yurtdoshlarimiz Madina shahrida "Masjidi Nabaviy"dan 100 metr uzoqlikda joylashgan besh yulduzli "Zam-zam Pullman" va "Kraun Plaza" mehmonxonalari, Makka shahrida ham besh yulduzli "Abroj al-Hidoya" mehmonxonasiga joylashtirildi. Ushbu mehmonxonalar yuqori sig'imlilik, muqaddas qadamjolarga yaqinligi va O'zbekiston bilan ishlashda ko'p yillik tajribaga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Barchamizga ma'lumki o'tgan oxirgi ikki yil dunyoda keng tarqalgan virus sabab haj va umra ibodatini ado etish hech bir musulmonga nasib qilmadi. Alhamdulillah, bu yil yana Ka'bai muazzamani ziyorat qilib, islomning beshinchi arkoni bo'lmish haj ibodatini bajarish uchun ziyoratga yo'l ochildi. Shu maqsadda joriy yilda haj va umra tadbirlarini tashkil etish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib, fuqarolarimizning muqaddas ziyoratga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirish maqsadida Rahbariyat ko'rsatmasi va jamoatchilik kengashi qarori asosida haj va umra safarlarini tashkil etish yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, umra safariga boruvchi ziyoratchilarning sonini belgilash bo'yicha kvota olib tashlandi, natijada respublikamizning ayrim hududlarida navbatlar tugatildi, ba'zilarida esa navbatlarining sezilarli darajada kamayishiga erishildi. "COVID-19" pandemiyasi sababli to'xtatilgan uzoq muddatli tanaffusdan keyin, shu



yilning 22 yanvar kuni ziyoratchilarimizning dastlabki guruhlari Saudiya Arabistoniga umra safariga yo‘l oldi.

Muborak haj va umra ziyoratiga borayotgan yurtdoshlarimiz uchun Makka va Madina shaharlarida barcha sharoitlar muhayyo qilindi. Ularni kutib olish, mehmonxonalarga joylashtirish, tibbiy xizmat, uch mahal issiq taomlar bilan ta‘minlash, qaytish ishlari yuqori saviyada tashkil etildi. Bunda diniy idora tomonidan tashkil etilgan haj va umra ishchi guruhlarining salmoqli mehnatlari borligini qayd etish darkor. Xususan, yurtdoshlarimiz Madina shahrida “Masjidi Nabaviy” dan 100 metr uzoqlikda joylashgan besh yulduzli “Zam-zam Pullman” va “Kraun Plaza” mehmonxonalari, Makka shahrida ham besh yulduzli “Abroj al-Hidoya” mehmonxonasiga joylashtirildi. Ushbu mehmonxonalar yuqori sig‘imlili, muqaddas qadamjolariga yaqinligi va O‘zbekiston bilan ishlashda ko‘p yillik tajribaga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

XULOSA

Vijdon erkinligi Konstitutsion huquqdir. Shunday ekan yurtimizda amalga oshirilayotgan diniy islohotlar, bag‘rikenglik va tolerantlik davlat tinchligi, iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo‘lib kelmoqda. Kelgusida haj ziyorati amallarini yanada soddalashtirish, qulayroq bo‘lgan takliflarni ishlab chiqish diniy dunyoqarashimizni, mafkuramizni o‘stirishi shubhasiz.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <http://old.muslim.uz/index.php>
2. <https://religions.uz/news>
3. <https://nasafziyo.uz>
4. <https://kun.uz/37205312>
5. <https://yuz.uz/news>

